© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

ISSIQXONA SHAROITIDA QISHKI-BAHORGI MAVSUMDA BAQLAJON NAV NAMUNALARINING KO‘CHAT TUTISHI VA FENOLOGIK RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI: DASTLABKI TADQIQOTLAR TAHLILI

Nabiyeva Mohinur Fazliddin qizi
Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti,”Meva-sabzavotchilik va uzumchilik”kafedrasi tayanch doktoranti
e-mail:nabiyeva.mohinur@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada Andijon viloyati Paxtaobod tumani plyonkali issiqxona sharoitida qishki-bahorgi mavsumda yetishtirilgan baqlajonning 35 ta mahalliy va xorijiy nav hamda duragaylarining tuproq-iqlim sharoitiga moslashishi, ko‘chat tutishi va dastlabki fenologik ko‘rsatkichlari.

Abstract

The article examines the adaptation to soil and climatic conditions, seedling establishment, and initial phenological indicators of 35 local and foreign eggplant varieties and hybrids grown during the winter-spring season in plastic greenhouses in the Paxtaobod district of the Andijan region.

Kalit so‘zlar: baqlajon, ko‘chat tutishi, fenologik ko‘rsatkich, adaptatsiya, plyonkali issiqxona

Keywords: eggplant, seedling establishment, phenological indicator, adaptation, plastic greenhouse

Aholini yil davomida uzluksiz va sifatli sabzavot mahsulotlari bilan ta’minlash qishloq xo‘jaligi sohasining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, mavsumdan tashqari davrda (qish oxiri va bahor oylarida) plyonkali issiqxonalardan samarali foydalanish ichki bozorni to‘ldirish va eksport salohiyatini oshirishda muhim agrar ahamiyatga ega.

Baqlajon (Solanum melongena L.) parhezbop va oziqaviy qiymati yuqori bo‘lgan, vitaminlar, minerallar hamda antioksidantlarga boy ekin turidir. Biroq baqlajon o‘ta issiqsevar va yorug‘liksevar bo‘lganligi sababli, qishki-bahorgi mavsumda plyonkali issiqxonalarning o‘zgaruvchan mikromuhitiga (harorat tebranishlari va havo namligiga) juda sezgir hisoblanadi.

2. METODLAR VA MATERIALLAR (Materials and Methods)

Dala tajribalari 2026-yilning mart-may oylarida Andijon viloyati Paxtaobod tumanida joylashgan “Toshmatov” xususiy dehqon xo‘jaligining plyonkali issiqxonasida olib borildi. Tadqiqot obyekti sifatida Davlat reestriga kiritilgan hamda xorijiy genfonddan keltirilgan jami 35 ta baqlajon navlari va duragaylari (Avrora, Olmos, Chyornaya akula va b.) tanlab olindi.

Sog‘lom va tekis rivojlangan 65 kunlik baqlajon ko‘chatlari joriy yilning 22-mart kuni issiqxona tuprog‘iga 60x40 sm sxemada, 2 qatorli qilib egatlarga o‘tqazildi. Har bir navdan 20 donadan ko‘chat ekilib, ilmiy hisob-kitoblar uchun 10 donadan o‘simlik model sifatida ajratildi.

Ilmiy-tadqiqot ishlari davomida “Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilikda tajribalar o‘tkazish metodikasi” (B.J.Azimov, B.B.Azimov, 2023) uslubiy qo‘llanmasidan foydalanildi.

3. NATIJALAR (Results)

Olib borilgan dastlabki dala tajribalari va fenologik hisob-kitoblar shuni ko‘rsatdiki, baqlajon nav va duragaylarining plyonkali issiqxona muhitiga moslashishi hamda vegetatsiya fazalariga kirish dinamikasi genotipning ichki xususiyatlariga bog‘liq holda guruhlarga ajraldi.

O‘simliklarning regeneratsiya (tutib ketish) qobiliyati bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich “Chyornaya akula” (99.0%) navida hamda andoza sifatida olingan “Avrora” (98.7%) navida qayd etildi. Shuningdek, K-108 (97.0%) nav namunasi ham issiqxonaning qishki-bahorgi o‘zgaruvchan sharoitlariga yuqori yashovchanlik xususiyatini namoyon etdi.

© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

1-jadval. Baqlajon navlarining ko‘chat tutishi va fenologik ko‘rsatkichlari (2026-y. dastlabki ma’lumotlari)

T/r	Nav / duragay nomi	Ekish sanasi	Ko‘chat tutishi, %	Gullash boshlanishi	Pishish boshlanishi
1	Chyornaya akula	22.03.2026	99.0%	14.04.2026	14.05.2026
2	Avrora (nazorat)	22.03.2026	98.7%	17.04.2026	20.05.2026
3	K-108	22.03.2026	97.0%	15.04.2026	24.05.2026
4	K-20 M.M.212	22.03.2026	92.0%	18.04.2026	18.05.2026
5	K-102	22.03.2026	67.0%	24.04.2026	30.05.2026
6	K-14	22.03.2026	59.0%	26.04.2026	31.05.2026

4. MUNOZARA (Discussion)

Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, baqlajon ko‘chatlarining issiqxona tuproq-iqlim sharoitiga moslashishi faqatgina parvarishga emas, balki ularning genetik imkoniyatlariga uzviy bog‘liq. "Chyornaya akula", "Avrora" va K-108 navlarida ildiz tizimining tez tiklanishi va fiziologik jarayonlarning faolligi hisobiga yoppasiga gullash va hosil tugish fazalari tezroq yakunlandi.

Aksincha, K-14 va K-102 kabi namunalarda ildiz olish xususiyatining sustligi vegetativ massaning sekin shakllanishiga va natijada generativ organlar (gullar) hosil bo‘lishining kechikishiga olib keldi. Bu holat qishki-bahorgi qisqa mavsumda yakuniy hosildorlikning pasayishiga sabab bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

5. XULOSA (Conclusion)

1. Plyonkali issiqxonalarda qishki-bahorgi ekishda baqlajon genotiplarining ko‘chat tutish darajasi nav xususiyatlariga ko‘ra 59.0% dan 99.0% gacha keskin tebranishi aniqlandi.

2. Dastlabki moslashuvchanlik, ildiz regeneratsiyasi va erta hosil berish dinamikasi bo‘yicha “Chyornaya akula”, “Avrora” (nazorat) va K-108 navlari qishki-bahorgi mavsumda plyonkali issiqxonalarda yetishtirish uchun eng istiqbolli genotiplar sifatida ajratib olindi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (References)

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son Farmoni. – Toshkent, 2019.
2. Azimov B.J., Azimov B.B. Sabzavot, poliz va kartoshka ekinlarida tajribalar o‘tkazish uslubi. – Toshkent, 2023.
3. Nabiyeva M.N. Andijon AQAI ilmiy to‘plami. – 2026. – B. 2-5.